

“BIRINCHI QALDIRG‘OCH ” SPEKTAKLIDA REJISSYOR VA AKTYORLARNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Qahhorov Muhammadali Xolbo‘ta o‘g‘li

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15050388>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbek Milliy Akademik drama teatrining 110 yillik mavsumiga bag‘ishlanib sahnalashtirilgan, iste’dodli o‘zbek aktrisasi Ma’suma Qoriyevaning hayoti haqida so‘zlovchi “Birinch qaldirg‘och” dramasiining ayrim muhim taraflari yoritilgan.

Shu bilan birga spektaklni sahnalashtiruvchi bosh rejissyor hamda unda bosh rollarni ijro etgan aktyorlarning rejissyorlik va aktyorlik san’atidagi innovatsion yondashuvlari haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: San’at, teatr, spektakl, rejissyor, aktyor, aktrisa, Ma’suma Qoriyeva, “Birinch qaldirg‘och”, 110 yillik.

INNOVATIVE APPROACHES OF THE DIRECTOR AND ACTORS IN THE PLAY “THE FIRST SWALLOW”

Abstract. This article highlights some important aspects of the drama “The First Swallow”, which tells about the life of the talented Uzbek actress Masuma Qoriyeva, staged in honor of the 110th anniversary of the Uzbek National Academic Drama Theater. At the same time, the innovative approaches of the director and the actors who played the main roles in directing and acting are discussed.

Keywords: Art, theater, play, director, actor, actress, Masuma Qoriyeva, “The First Swallow”, 110 years.

НОВАТОРСКИЕ ПОДХОДЫ РЕЖИССЕРА И АКТЕРОВ В СПЕКТАКЛЕ «ПЕРВАЯ ЛАСТОЧКА»

Аннотация. В данной статье освещаются некоторые важные аспекты драмы «Первая ласточка», повествующей о жизни талантливой узбекской актрисы Масумы Кориевой, поставленной в честь 110-летия Узбекского национального академического драматического театра. При этом обсуждались новаторские подходы к режиссуре и актерской игре главного режиссера спектакля и актеров, сыгравших в нем главные роли.

Ключевые слова: Искусство, театр, спектакль, режиссер, актер, актриса, Масума Кориева, «Первая ласточка», 110-летие.

U hayotga kelarkan, yolg'iz edi. Ota-onasi yo'q va bolalar uyida katta bo'ldi. Alloh nasib etib unga oqil turmush o'rtoq, yaxshi farzandlar yoki qisqa qilib aytganda oila berdi. Ammo uning taqdiriga yolg'izlik yozilgan ekan, hayotdan ketar vaqtda ham hech kimsiz yolg'iz qoldi. Bu birinchi o'zbek aktrisasi, "Birinchi qaldirg'och" – Ma'suma Qoriyeva. 2024-yilning 15-noyabr kuni poytaxtdagi O'zbek Milliy Akademik drama teatrining 110 yillik mavsumiga bag'ishlanib, Isajon Sultonning "Ma'suma" romani motivlari asosida "Birinchi qaldirg'och" dramasi premyerasi bo'lib o'tdi. Spektakl o'zbek teatrining birinchi aktrisasi Ma'suma Qoriyevaning yorqin xotirasiga bag'ishlandi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton qalamiga mansub bo'lgan "Ma'suma" romani 2022-yilda chop etildi. Asarda birinchi o'zbek aktrisasining jasoratli odimlari, sevgi baxtiga oshno kunlari, fojiali taqdiri mahorat bilan tasvirlanadi. Hayotga uyg'oq nazar bilan qaramoq, ilm-ma'rifat sari dadil qadam tashlamoq ajri bu ma'suma ayolni ne-ne sinovlarga ro'baro' qilmadi.

Uzoq yillik darbadarliklardan so'ng o'zbek teatrining tamal toshini qo'ygan rejissyor Mannon Uyg'ur Ma'suma Qoriyevani teatrga jalb qiladi. Ma'suma – qalbi zilolday musaffo, sahnada ruhi ko'klarga oqqushday parvoz qiluvchi aktrisa. Qatag'onga duchor bo'lgan yuzlab ma'rifatparvarlar, juvonmarg bo'lgan minglab oilalar qatorida xalqqa teatr vositasida ma'rifat ulashish qismatini bo'yniga olgan va oxir-oqibat, avlod-ajdodi bilan kuli ko'klarga sovrilganlar qismati kishini seskantiradi. Ma'suma Qoriyeva – ana shunday fidoyi, o'zbek teatrining ilk qaldirg'ochlaridan biri. Uning hayoti nafaqat roman, balki spektakl, badiiy film yoki serial uchun ibratli mavzu ekani barcha ijodkorlar tomonidan e'tirof etiladi. "Ma'suma Qoriyeva o'zining 27 yillik ijodiy faoliyati davrida o'zbek, rus va jahon klassik dramaturgiyasi asarlari asosida sahnalashtirilgan spektakllarda yetuk obrazlar yaratdi.

U drama va musiqali drama asarlaridagi rollarini mohirona ijro etgan ulkan iste'dod sohibasi edi"¹. Haqiqatdan ham Ma'suma Qoriyeva ijod davri mobaynida Hamza Hakimzoda Niyoziy qalamiga mansub "Boy ila xizmatchi", "Holisxon", "Zaharli hayot", "Tuhmatchilar jazosi" pyesalarida Jamila, Hojar, Maryamxon, Fotima kabi dramatik ayollar rolini ijro etgan bo'lsa, jahon dramaturgiyasidan Fridix Shillerning "Makr va muhabbat" va "Qaroqchilar" pyesalarida Luiza hamda Amaliya rollarini mohirona ijro etdi. Ayniqsa Xurshidning "Layli va Majnun" hamda "Farhod va Shirin" pyesalari orqali sahnaga qo'yilgan spektakllarda ijro etgan

¹ Abduqunduzov. M, Yuldoshev. M. O'zbek Milliy Akademik drama teatrining ijodkorlari. T.: "Cho'lpon nomidagi NMIU", 2020. – 284 b.

Layli va Shirin rollari unga katta shuhrat keltirdi. Ko‘rish mumkinki, Ma’suma Qoriyeva ijodi davomida xarakterli rollar ustasi sifatida tanilgan: G‘ulom Zafariyning “Halima” pyesasidagi Halima, Karlo Gotssining “Malikai Turandot” pyesasidagi Adelma, Lope de Veganing “Qo‘zibuloq” pyesasidagi Malika va Uilyam Shekspirning shoh asarlaridan biri “Otello” da esa Emilya rollari shular jumlasidandir. Mana shunday yetuk aktrisa hayotini tasvirlash hamda uning xotirasini abadiylashtirish maqsadida san’atsevar xalqimizga “Birinchi qaldirg‘och” spektakli namoyish etildi.

Spektakl O‘zbek Milliy Akademik drama teatrining hozirgi kundagi bosh rejissyori Asqar Xolmo‘minov tomonidan sahnalashtirildi. Spektakl ikki kun davomida namoyish etilgan bo‘lsa, shu ikki namoyishda Ma’suma rolini “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” Lola Eltoyevalar hamda “O‘zbekistonda va Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan artist” Dilnoza Kubayevalar mahorat bilan ijro etdi. Shu bilan birga spektaklda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” lar Tohir Saidov, Ra’no Yarasheva, Mehriddin Rahmatov va “Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan artist” Tolib Mo‘minovlar o‘zlariga xos va mos rollarda ko‘rinish berdi. Bosh rol ya’ni Ma’suma, ikki aktrisa ijrosida, albatta, boshqa-boshqa talqinda ijro etildi. Avvalo “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” Lola Eltoyevalar ijrosiga to‘xtalinsa, aktrisa Ma’suma roliga yondashar ekan, og‘ir, bosiq hamda vazmin ayol sifatida tasvirladi. Yosh jihatdan katta bo‘lishiga qaramay, Ma’sumaning yoshlik davrini ham mahorati ila tomoshabinni ishonтира oldi. Shu bilan birga “rol ichidagi rollari” ya’ni Ma’sumaning Halima, Jamila, Emilya kabi rollarni ijro etishda Lola Eltoyevalar nafaqat Ma’suma rolini, shu bilan birga u o‘ynagan rollarni ham his qilib ijro etdi va tomoshabinga to‘laqonli yetkazib bera oldi. Ayniqsa Jamila monalogini tomoshabin nafaqat Ma’suma Qoriyeva hamda Lola Eltoyevalar ijrosida ko‘rdi deyilsa mubolag‘a bo‘lmaydi.

“O‘zbekistonda va Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan artist” Dilnoza Kubayeva ijrosida esa Ma’sumani avvalo shaddot, yosh va qiziqqon qiz ko‘rinishida gavdalantirdi. Voqealarning o‘zgarishi hamda vaqtlar o‘tishi natijasida esa ushbu obraz Dilnoza Kubayeva ijrosida yetuk, kuchli va jasoratli ayol sifatida namoyon bo‘ldi. Dilnoza Kubayeva ijrosida Ma’suma kuchli ayol, Lola Eltoyevalar mahorati ila u aqlli, vazmin, tadbirli ayol ekanligi yaqqol namoyon bo‘ldi.

Ushbu spektakl haqiqatan teatr sahnasida yangilik bo‘ldi. Rejissyorning innovatsion yondashuvlari va topilmalari spektaklning muvaffaqiyatli bo‘lishini hamda kelgusida yuqori mavqega ega bo‘lishidan dalolatdir. Asqar Xolmo‘minov teatrdagi yangicha qarashlari, yangicha uslubi orqali xalqimiz va san’atimizga xush kelmoqda.

Uning ushbu spektakldagi topilmalaridan biri shu bo'ldi-ki, u bir xillikdan qochish maqsadida, aktyorlarda odat yoki an'anaga aylanib qolgan sahnaning ikki chetidan chiqishni kamaytirdi. Uning o'rniga rejissyor tomosha zalidan va sahnaga qo'yilgan dekoratsiyadan foydalandi. Bu esa tomoshabin uchun ancha qiziqarli va ta'surotlarga boy bo'ldi. Shu bilan birga spektaklda voqealarning ketma-ketligi ipga tizilgan marjon kabi shunday mahorat bilan tuzilganki, rejissyor ushbu voqealarda har bir sahnada mavjud bo'lgan bosh roldagilar Ma'suma hamda Mannon Uyg'urlarning kirish-chiqishlarini kamaytirgan.

Yuqorida ta'kidlaganidek, u bu ishda tomosha zalidan hamda dekoratsiyadan unumli va doimiy foydalandi. Shu sababdan spektaklda voqeadan boshqa bir voqeaga o'tish xuddi kinodagi kabi "kadrda kadr" o'tishdek ko'rinadi. Bu rejissyorning fantaziyasi hamda mahoratiga bog'liq, albatta. Spektaklning g'oyasi, haqiqatdan ham o'sha davrda "Ayol bugungi turmushning qurboni" deya bejizga ta'riflanmagan. Ayollarning turmush tarzi juda yomon ahvolda, ularning haq-huquqlari har qadamda poy-mol bo'ladi. Ularning erki o'zida emas va shu bilan birga ular uchun har qanday eshiklar yopiq. Buni spektaklning kichik bir sahnasida ham ko'rish mumkin.

"Bir ayolning advokatning oldiga kelishi va bu tarixda o'zbek ayolining ilk bora advokat oldiga arz qilib kelishi hech qachon bo'lmagan. Buni ko'rgan advokat esa olam shumul voqeaga guvoh bo'lgandek hayratda". Shunday tomoshalar orqali xalq ko'zini ochishga harakatlar jadidlar tomonidan amalga oshirildi. Ammo "Bu xalqning mehri ham, qahri ham daryodek" bo'lganligi sababli, xalq ko'zining ochilishi uchun ancha qiyinchiliklar va qurbonlar bo'ldi.

Bu qiyinchiliklar ortidan afsus Ma'suma Qoriyeva o'zi aytganidek: "Alangaday yonib tugadi". Shuni ta'kidlash lozimki, Ma'suma Qoriyevaning fojiali taqdiri, qiyinchiliklarda o'tgan hayoti va serqirra ijodi hozirgi kundagi yosh ijodkorlarga, nafaqat ularga har bir insonga ibrat, namuna hamda o'rnak bo'la oladi. Inson hayotida qanday qiyinchiliklar kelishiga qaramay, xuddi "Sharq qizidek o'rnidan tura olishi" hayotda yana dadil qadamlar ila davom etishi lozim.

Shu o'tkazgan umri mobaynida xalqiga, Vataniga, oilasiga, hech bo'lmasa boshqa bir insonga, yoki nari borsa, o'ziga foydasi, yaxshiligi va manfaati tegishi lozimdir. U dunyoga inson bo'lib keldi, lekin kim bo'lib qaytyabdi? Shuning uchun har bir inson o'ziga o'zi xuddi Ma'sumadek savol berishi lozim: "Ey Xudoyim, bugun huzuringga kim bo'lib boryabman o'zi?".

REFERENCES

1. Abduqunduzov. M, Yuldoshev. M. O'zbek Milliy Akademik drama teatrining ijodkorlari. T.: "Cho'lpon nomidagi NMIU", 2020. – 284 b.

2. Tulyaxodjayeva M. Rejissura uzbekskogo dramaticheskogo teatra. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1995.
3. Rahmonov M., To‘laxo‘jayeva M. T., Muxtorov I. A. O‘zbek milliy akademik drama teatri tarixi. – T., 2003.
4. Мухторова, М. (2022). ИСАМАТ ЭРГАШЕВ КИНОКОМЕДИЯЛАРИ. Science and innovation in the education system, 1(5), 20-26.
5. Mukhtorova, M. (2021). National Flavour in Contemporary Uzbek Cinema Comedy. American Journal of Social and Humanitarian Research, 2(5), 99-106.
6. Muxtorova, M. (2023). УЗБЕКСКОЙ КИНОКОМЕДИИ–80 ЛЕТ! Жанровый тематический обзор узбекской кинокомедии. Modern Science and Research, 2(10), 190-197.
7. Мухторова, М. (2022). “ЧИНОР ТАГИДАГИ ДУЭЛ” ФИЛЬМИДА ХАРАКТЕР МАСАЛАСИ. Oriental Journal of Social Sciences, 2(1), 84-90.